

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-fevral)


Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.


Hukumatning bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 671,7 mln. AQSh dollariga yetdi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi.


TOSHKENT
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(mln. AQSh
dollari)



TSAda eksport hajmi 232,2 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 78,8 %) va import hajmi 439,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 124,6 %) yetdi. Hisobot davrida 207,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



TOSHKENT
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
ULUSHI YUQORI
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Qozog'iston	151,1	19,4	131,7	22,5
Rossiya	116,6	33,4	83,2	17,4
Turkiya	115,7	100,9	14,9	17,2
Xitoy Xalq Respublikasi	92,1	15,3	76,8	13,7
Koreya Respublikasi	32,6	1,5	31,2	4,9
Braziliya	21,1	0,0	21,1	3,1
B.A.A.	17,9	17,5	0,4	2,7
Germaniya	17,6	0,4	17,2	2,6
Tojikiston	16,6	8,2	8,4	2,5
Afg'oniston	12,8	12,8	0,0	1,9
Hindiston	8,1	0,5	7,6	1,2
Ukraina	7,4	4,6	2,8	1,1
Polsha	6,3	2,1	4,1	0,9
Belorusiya	5,0	2,0	3,0	0,7
Italiya	4,5	1,3	3,3	0,7
Litva	4,4	0,0	4,4	0,7
Qirg'iziston	3,9	1,9	2,0	0,6
Irlandiya	3,9	0,0	3,9	0,6
Eron	3,8	0,6	3,2	0,6
Singapur	3,3	1,3	2,0	0,5

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,2 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 32,6 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-fevral oylarida 64,7 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,8 % ni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,0 % ga kamaydi.


TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH MAMLA-
KATLARI VA
BOSHQA
XORIJIY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
(2020-yil
yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)



MDH davlatlaridan Ukraina bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

Boshqa davlatlardan TSAda eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH MAMLA-
KATLARI VA
BOSHQA
XORIJIY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)




TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-fevral)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o`shishiga ko`maklashadi va bu o`z navbatida ma`lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlarni nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar eksporterlar tomonidan 232,2 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilga nisbatan o`zgarish sur`ati 78,8%) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,6 % ni tashkil etib, bular asosan qora va rangli metallar (58,3 %), boshqa turdagi tovarlar (22,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,3 %), paxta tolasi (4,1%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (3,2%) shuningdek, mashina va uskunalar (1,8 %) guruhlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-fevral)**



**EKSPORT
TARKIBI
MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLAR
KESIMIDA
(2020-yil
yanvar-fevral)**


Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	232,2	71,5	160,7	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Paxta tolasi	9,6	-	9,6	4,1	-	5,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	21,6	13,0	8,5	9,3	18,2	5,3
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	7,4	5,2	2,2	3,2	7,2	1,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-	-	-	-
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	135,4	15,9	119,5	58,3	22,3	74,4
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	4,2	1,7	2,5	1,8	2,4	1,6
Xizmatlar	1,0	0,3	0,7	0,4	0,4	0,4
Boshqalar	53,1	35,4	17,7	22,9	49,5	11,0

2020-yilning yanvar-fevral oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlarida o'sish kuzatildi.

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR GA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI-NING O`SISH SUR`ATLARI (2020-yil yanvar-fevral, % hisobida)

Tarkibi	2019-yil yanvar-fevralga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	78,8	99,9	72,0
shujumladan:			
Paxta tolasi	19,2	-	19,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,4 m.	3 m.	1,8 m.
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1,8 m.	1,8 m.	1,7 m.
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	80,4	83,7	80,0
Mashina va asbob-uskunalar	59,1	63,6	56,4
Xizmatlar	64,7	92,2	57,6
Boshqalar	97,0	83,7	1,4m

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-fevral)



**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 13,2 mln. dollar qiymat ega 28,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bu 2019-yilga nisbatan qiymatda – 3,9 va naturada – 3,0 barobar o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 8,7 mln. AQSh dollariga teng 23,6 ming tonnadan ortiq sabzavot, shuningdek 2,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 2,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymat ko'rinishidagi o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan mos ravishda 3,1 va 7,7 barobarga o'sgan).

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar-fevral, 2020-y.)

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
(yanvar-fevral,
mln. AQSh
dollari)**




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida meva va rezavorlar hamda sabzavotlarning eksport hajmi 11,4 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-fevral)

Respublikada import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ishlab chiqarishni mahalliy-lashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan so'nggi yillarda import hajmi oshib kelayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 439,4 mln. AQSh dollarni (2019-yilning shu davriga nisbatan 124,6 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari (34,9 %), boshqa turdagi tovarlar (29,6 %), qora va rangli metallar (13,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (10,3 %) hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-fevral)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85,7 mln. AQSh dollariga ko'payib 439,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, xizmatlar importi esa 6,2 mln. AQSh dollarga yetdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-fevral)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	439,4	231,7	207,7	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari	45,2	34,1	11,1	10,3	14,7	5,3
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	25,9	5,7	20,2	5,9	2,5	9,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	20,4	20,3	0,1	4,6	8,8	0,1
Qora va rangli metallar, ulardan yasalgan buyumlar	58,2	28,6	29,6	13,2	12,3	14,3
Mashina va asbob-uskunalar	153,2	27,0	126,2	34,9	11,7	60,7
Xizmatlar	6,2	0,3	6,0	1,4	0,1	2,9
Boshqalar	130,2	115,7	14,5	29,7	49,9	7,0


Importning eng katta ulushi, jumladan, boshqa turdagi tovarlar (49,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (14,7 %), shuningdek qora va rangli metallar (12,3 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (125,1 %), qora va rangli metallar (14,3 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020-yil
yanvar-fevral,
% hisobida)**

Tarkibi	2019-yil yanvarga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	124,6	147,5	106,1
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	64,1	89,5	34,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	79,7	53,5	92,5
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	6,7 m.	7 m.	78,0
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	145,5	98,8	2,7 m.
Mashina va asbob-uskunalar	136,2	2,3 m.	125,1
Xizmatlar	117,9	10 m.	113,0
Boshqalar	146,6	178,5	60,4

2020-yilda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019-yilning shu davriga nisbatan mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari importining ulushi 31,9 % dan 34,9 % gacha o'sdi, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo mahsulotlari importining ulushi esa 20,0 % dan 10,3 % ga va 9,2 % dan 5,9 % ga kamaydi.

VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-fevral,
% hisobida)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Braziliya, Germaniya va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 376,0 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 85,6 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:(71) 230-86-59**